



# Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Yanvar-oktyabr 2018 yilda

## Raq'amlar:

- 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 8891,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'shish sur'ati 133,5 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 3092,9 ming so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 8891,2 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (32,8 %), transport xizmatlari (27,7 %), moliyaviy xizmatlar (10,5%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2,6 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish  
(2018 yil yanvar-oktyabr oylari uchun)

|  | mlrd. so'm    | 2017 yil yanvar-oktyabr ga nisbatan % hisobida | yakunga nisbatan % hisobida |
|--|---------------|--|-----------------------------|
| <b>Jami xizmatlar</b>  | <b>8891,2</b> | <b>106,2</b>                                   | <b>100,0</b>                |
| shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha  |               |  |                             |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 235,2         | 128,5  | 2,6                         |
| moliyaviy xizmatlar  | 930,1         | 133,5  | 10,5                        |
| transport xizmatlari   | 2458,8        | 101,5  | 27,7                        |
| shu jumladan: avtotransport xizmati  | 2371,5        | 101,8  | 26,7                        |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 410,6         | 101,8  | 4,6                         |
| savdo xizmatlari   | 2918,5        | 100,0  | 32,8                        |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 320,5         | 103,3  | 3,6                         |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 212,3         | 116,5  | 2,4                         |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 164,9         | 126,0  | 1,9                         |
| ijara xizmatlari   | 292,3         | 104,4  | 3,3                         |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                       | 215,9         | 101,8  | 2,4                         |
| shaxsiy xizmatlar  | 260,7         | 102,0  | 2,9                         |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 174,5         | 128,8  | 2,0                         |
| boshqa xizmatlar   | 296,9         | 121,2  | 3,3                         |

O'tgan yilning mos davriga savdo xizmatlari (0,5 trln. so'm), moliyaviy xizmatlar (0,3 trln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (0,1 trln.so'm), ta'lim xizmatlari (0,1 trln.so'm) oshganligi kuzatildi.


**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida alohida xizmat turlari  
hajmining taqqoslanishi, mlrd.sum**



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi moliyaviy xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 0,3 trln.so'mga oshdi.

2018 yil yanvar- oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy xizmatlar (33,5 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (28,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (28,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (26,0 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar- oktyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar – 30,6 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati 23,5 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 20,0 % ni tashkil etgan.

Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (88,5 %) etakchilik qilmoqda.




Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari tashkil etadi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2918,5 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,8 % ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida  
savdo xizmatlari tarkibi, %**



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 74,8 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,8 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 7,4 % ni tashkil qiladi.

**Toshkent viloyat statistika boshqarmasi**

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

Mas'ul: M.Tastanbekov

Tel:(71)230-86-74